

ISSN 2181-7200

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

---

ФАРҒОНА ПОЛИТЕХНИКА ИНСТИТУТИ

# И Л М И Й – Т Е Х Н И К А Ж У Р Н А Л И



---

---

---

2022. СПЕЦ. ВЫПУСК № 2

---

---

---

***НАУЧНО–ТЕХНИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ ФерПИ***

***SCIENTIFIC –TECHNICAL  
JOURNAL of FerPI***

**ФАРҒОНА – 2022**

## ФарПИ ИЛМИЙ-ТЕХНИКА ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТИ

1997 йилдан буён нашр этилади.  
Йилига 6 марта чоп қилинади.

ЎзР Олий аттестация комиссияси  
Раёсатининг 2013 йил 30 декабрдаги  
№201/3 қарори билан журнал ОАКнинг  
илмий нашрлари рўйхатига киритилган

Бош муҳаррир

Ў.Р. САЛОМОВ

### Таҳрир хайъати:

#### Физика-математика фанлари:

1. Мўминов Р.А., академик, ф.-м.ф.д., проф. – Ўз ФА ФТИ
2. Нуриддинов И., ф.-м.ф.д., проф. – Ўз ФА ЯФИ
3. Расулов Р.Я., ф.-м.ф.д., проф. – Фар ДУ
4. Сиддиқов Б.М., Prof. of Mathem. – Ferris State University, USA
5. Ўринов А.Қ., ф.-м.ф.д., проф. – Фар ДУ
6. Юлдашев Н.Х., ф.-м.ф.д., проф. – Фар ПИ
7. Вайткус Ю.Ю., академик, ф.-м.ф.д., проф. Вильнюс, Литва ДУ

#### Механика:

1. Алиматов Б.А., т.ф.д., проф. – Белгород ДТУ, Россия
2. Бойбобоев Н., т.ф.д., проф. – Нам МКИ
3. Мамаджанов А.М., т.ф.д., проф. – Тош ДТУ
4. Тожиёв Р.Ж., т.ф.д., проф. – Фар ПИ
5. Тўхтақўзиев А., т.ф.д., проф. – Ўз ФА МЭИ
6. Отақулов О.Х., т.ф.н., доц. – ТАТУ ФФ

#### Қурилиш:

1. Аббасов Ё.С., т.ф.д. – Фар ПИ
2. Одилжаев А.Э., т.ф.д., проф. – Тош ТЙМИ
3. Ақромов Х.А., т.ф.д., проф. – Тош АҚИ
4. Аскарлов Ш.Ж., арх.ф.д. проф. – Тош АҚИ
5. Раззаков С.Ж., т.ф.д., проф. – НамМКИ
6. Сатторов З.М., т.ф.д. проф. – Тош АҚИ

#### Энергетика, электротехника, электрон қурилмалар ва ахборот технологиялар

1. Арипов Н.М., т.ф.д. – Тош ТЙИ
2. Қасьмаҳунова А.М., т.ф.д., проф. – Фар ПИ
3. Расулов А.М., т.ф.д. – ТАТУ ФФ
4. Эргашев С.Ф., т.ф.д. – Фар ПИ
5. Хайриддинов Б.Э., т.ф.д., проф. – Қарши ДУ

#### Кимёвий технология ва экология

1. Ибрагимов А.А., к.ф.д., проф. – Фар ДУ
2. Ибрагимов О.О., к.х.ф.д. – Фар ПИ
3. Хамдамова Ш.Ш., т.ф.д. – Фар ПИ
4. Хамроқулов З.А., т.ф.д. – Фар ПИ

#### Ижтимоий-иқтисодий фанлар

1. Иқромов М.А., и.ф.д., проф. – Тош ИУ
2. Искандарова Ш.М., фил.ф.д., проф. – Фар ДУ
3. Исманов И.Н., и.ф.д. – Фар ПИ
4. Қудбиев Д., и.ф.д., проф. – Фар ПИ

## НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ ФерПИ

Издаётся с 1997 года.  
Выходит 6 раз в год.

Постановлением Президиума Высшей  
аттестационной комиссии РУз №201/3  
от 30 декабря 2013 г. журнал включен в  
список научных изданий ВАК.

Главный редактор

У.Р. САЛОМОВ

### Редакционная коллегия:

Ё.С. Аббасов, Б.А. Алиматов, Х.А. Ақромов, Н.М. Арипов, Ш.Ж. Аскарлов, Н. Бойбобоев,  
А.А. Ибрагимов, О.О. Ибрагимов, М.А. Иқромов, Ш.М. Искандарова, И.Н. Исманов, А.М. Қасьмаҳунова, Д. Қудбиев,  
А.М. Мамаджанов, Р.А. Муминов, И. Нуриддинов, А.Э. Одилжаев, О.Х. Отақулов, А.М. Расулов, Р.Я. Расулов,  
С.Ж. Раззаков, Б. Сиддиқов, З.М. Сатторов, Р.Ж. Тожиёв, А.А. Тўхтақўзиев, А.К. Уринов,  
Б.Э. Хайриддинов, Ш.Ш. Хамдамова, З.А. Хамроқулов, С.Ф. Эргашев,  
Н.Х. Юлдашев (ответственный редактор)

## SCIENTIFIC – TECHNICAL JOURNAL of FerPI

It has been published since 1997.  
It is printed 6 times a year.

The decision of Presidium of the Supreme  
Attestation Committee of the RUz №201/3  
from December, 30th, 2013 Journal is included  
in the list of scientific editions of the SAC.

Editor-in-chief

O'R. SALOMOV

### Editorial board members:

Yo.S. Abbasov, B.A. Alimatov, X.A. Akromov, N.M. Aripov, Sh.J. Askarov, N. Boyboboiev, A.A. Ibragimov,  
O.O. Ibragimov, M.A. Ikramov, Sh.M. Iskandarova, I.N. Ismanov, A.M. Kasimahunova, D. Kudbiev, A.M. Mamadjanov,  
R.A. Muminov, I. Nuritdinov, A.O. Odilxajaeov, O.H. Otakulov, A.M. Rasulov, R.Ya. Rasulov, S.J. Razzakov, B. Siddikov, Z.M. Sattorov,  
R.J. Tojiev, A.A. Tuxtakuziev, A.K. Urinov, B.E. Hayriddinov, Sh.Sh. Xamdamova, Z.A. Xamroqulov, S.F. Ergashev,  
N.Kh. Yuldashev (Executive Editor)

## МУНДАРИЖА

### ФУНДАМЕНТАЛЬ ФАНЛАР

Sulaymonov X.M., Tolaboyev D.X. Yarimo'tkazgichlarning issiqlik o'tkazuvchanligi .....	9
Tolaboyev D.X. Ikki atomli oddiy uyachali kristallning bir o'lchamli zanjiri .....	13
Nasirov M.X. O'lchamli kvantlashgan strukturalarda oddiy zonali yaqinlashish .....	17

### МЕХАНИКА

Turdiyev H.E., Babayeva M.N. Chiqindilarni aylana yuzali teshikchalardan chiqib ketish ehtimolliklarini C++ dasturlash tili yordamida tadqiq etish .....	14
Yusupov S.M. Old va yon tomon shtamp plastinalarining ta'sir etuvchi kuchlarning taqsimlanishi .....	30
Fayzimatov B.N., Xusanov Y.Y. Rdb dastgohlarda detallarni tayorlash operatsiyalarini ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning texnologik imkoniyatlarining tahlili .....	34
Yusupov S. M. Buriluvchi lopastli turbina xususiyatlarini matematik modellash .....	41

### ҚУРИЛИШ

Умаров Ш.А., Мирзабабаева С.М. Шиша тола арматурали эгилувчи тўсиннинг арматура ва бетони деформацияларини тадқиқ этиш .....	51
Мирзаахмедова Ў.А. Шикастланган юк кўтарувчи конструкцияларни мустаҳкамлик кўрсаткичлари бўйича ҳисоблаш .....	56
Ahmedov J.J., Qosimova Sh.F. O'zbekiston tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash va arxitekturaviy rivojlanishi .....	62
Мадрахимов М.М., Абдулхаев З.Э., Арифжанов А.М. Сифонли дренаж орқали ер ости сувлари сатҳини бошқаришнинг гидравлик ҳисоби .....	69

### ЭНЕРГЕТИКА, ЭЛЕКТРОТЕХНИКА, ЭЛЕКТРОН ҚУРИЛМАЛАР ВА АХБОРОТ

#### ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Mamasadikov Yu., Alixonov E.J. Paxta lentasining chiziqli zichligini nazorat qiluvchi optoelektron qurilma .....	76
Ismoilov I.K. Elektr qurilmalarning samaradorligiga suyuq dielektrlarning ta'siri .....	81
Охунов М.Х., Охунов Д.М. Рақамли иқтисодиётда ақлли ахборот тизимлари ва сунъий интеллект технологияларининг ривожланишини таҳлил қилиш .....	86
Abbasov Yo.S., Abduraimov B.A., Usmonov M.A. Issiqlik taminoti tizimlarida qo'llaniladigan isitish jihozlarini tadqiq etish va ishchi parametrlarini optimallashtirish .....	92
Охунов М.Х., Охунов Д.М. Машинани ўрганиш ва нейрон тармоқларидан фойдаланиш .....	96
Khudoyorov X.D. Fotovoltaik paneldan foydalangan yer osti metall quvurlarining katodik himoya tizimini ishlab chiqish .....	101
Зокиров С.И., Рахматова Г.М. Дихроик филтрлардан фойдаланган ҳолда PVT-ўзгартиргичларни яратиш .....	106

### КИМЁВИЙ ТЕХНОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ

Хошимов А.А., Ибрагимов Ф.А. Аммиакли селитра гранулаларини фосфортутган қўшимчалар билан қайта ишлаш орқали мураккаб ўғитларнинг адгезион хусусиятларини ўрганиш .....	111
---	-----

### ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ФАНЛАР

Ashurov M.S. O'rta muddatli risk muhitida o'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish xususiyatlari .....	116
Obidov J.G'. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari .....	120

### ҚИСҚА ХАБАРЛАР

Sulaymonov X.M. Siklik deformatsiyalarda $(Bi_{0,3}Sb_{0,7})_2Te_3$ plyonka qarshiligining haroratga bog'liligi .....	125
Abdullaev Sh.Sh. O'zbekiston to'qmachilik sanoatida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish .....	128
Уроков А.Х., Ташев Д.В. Фарғона водийси автомобиль йўлларидаги транспорт оқим харакатнинг хавфлилик даражасига таъсирини тадқиқ қилиш .....	131

Юк кўтариш қобилияти 15% ва ундан кўпроқ микдорга пасайган, ёриқлари бор бўлган тош-ғишт, йирик блокли ва йирик панелли конструкциялар кучайтирилиши шарт ҳисобланади [7,8]. Авария ҳолатига келиб қолган, юк кўтариш қобилиятининг 50%идан кўпроғи йўқотилган конструкцияларни фақатгина техник-иқтисодий асослаш ишлаб чиқилган ҳоллардагина кучайтиришга рухсат этилади. Нуқсон ва шикастланишлари йўқ бўлган тош-ғишт конструкциялар материаллари мустаҳкамлигининг пасайиши (ёки пастлиги) натижасида ҳақиқий юк кўтариш қобилиятининг таъсир этувчи зўриқишлардан кам эканлиги аниқланган ҳолда кучайтирилиши керак бўлади.

### Адабиётлар:

- [1]. Александровский С.В. «Расчет бетонных и железобетонных конструкций на изменение температуры и влажности с учетом ползучести» М.: Стройиздат, 1973г.
- [2]. Фомин С.Л. Ахмедов А.А. «Усадка тяжелого бетона при повышенных температурах» 1977 г.
- [3]. Мирзаахмедов А. Т., Мирзаахмедова У. А. Алгоритм расчета железобетонных балок прямоугольного сечения с односторонней сжатой полкой //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-2 (145).
- [4]. Мирзаахмедов А.Т., Мирзаахмедова У.А. Предварительные потери от усадки и нелинейной ползучести бетона железобетонных стержневых систем // Международный научно-исследовательский журнал EPRA (IJRD). - 2020. - Т. 5. - №. 5. - С. 588-593
- [5]. Abdukhalimjohnovna M. U. Technology Of Elimination Damage And Deformation In Construction Structures //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 5. – С. 224-228.
- [6]. Mirzaakhmedov A. T., Mirzaakhmedova U. A. Prestressed losses from shrinkage and nonlinear creep of concrete of reinforced concrete rod systems //EPRA International journal of research and development (IJRD). – 2020. – Т. 5. – №. 5. – С. 588-593.
- [7]. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Mukhamedzanov A. R. Capillary permeability of concrete in salt media in dry hot climate //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2020. – Т. 2281. – №. 1. – С. 020028.
- [8]. Махкамов Й. М., Мирзабабаева С. М. Температурные прогибы железобетонных балок в условиях воздействия технологических температур //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144).

## O'ZBEKISTON TARIXIY SHAHAR MARKAZLARINI QAYTA TIKLASH VA ARXITEKTURAVIY RIVOJLANISHI

D.J. Axmedov, Sh.F. Qosimova

*Farg'ona politexnika institute, E-mail: axmedov0907@gmail.com  
(Qabul qilindi 13.06.2022 y.)*

*Ushbu maqolada O'zbekistonning qadimiy shaharlari hamda ularning jamoat markazlari kelib chiqishi bayon qilingan, shu bilan birgalikda hozirda yo'qolib ketgan tarixiy shahar markazlari qayta tiklash va rivojlantirish masalalari Farg'ona vodiysi misolida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** yodgorliklar, eng real istiqbolli muammo, arxiv ma'lumotlari, "Boburnoma", olovxonalar, hukmdorlarining qarorgohi, mahalliy to'qima rivoyat, hukmdorlar saroyi.

*В данной статье описывается происхождение древних городов Узбекистана и их общинных центров, а также восстановление и развитие ныне исчезнувших исторических городов на примере Ферганской долины.*

**Ключевые слова:** памятники, наиболее реалистическая перспективная задача, архивные данные, «Бобурнома», каминь, резиденция правителей, местная текстильная легенда, дворец правителей.

*This article describes the origins of the ancient cities of Uzbekistan and their community centers, as well as the restoration and development of historical cities that have now disappeared, using the example of the Fergana Valley.*

**Keywords:** monuments, the most realistic perspective problem, archival data, "Boburnoma", fireplaces, the residence of the rulers, the local textile legend, the palace of the rulers.

Kirish. Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, osoyishtalik, sohaga qaratilayotgan e'tibor, bu borada yaratilayotgan mustahkam qonunchilik bazasi, tarixiy yodgorliklarga boy qadimiy va navqiron shaharlarimiz, jumladan, Qo'qon, Marg'ilon, Rishton, Quva kabi shaharlarga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini yildan-yilga oshib borishini ta'minlamoqda. Shaharlarda amalga oshirilgan keng ko'lamdagi bunyodkorlik, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni Farg'ona viloyatida turizmni rivojlantirish va sayyohlik xizmatlari ko'lamini kengaytirish yo'lida ishlab chiqilgan maxsus dastur ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti. Birgina viloyatning eng yirik turistik imkoniyatlarga ega shaharlaridan biri Qo'qon shahriga 2020 yilda chet mamlakatlardan 1200 nafar mehmon tashrif buyurgan bo'lsa, 2021 yilda mazkur ko'rsatkich 4321 nafarni tashkil etdi. 2022 yil mobaynida shahrimizni tomosha qilish uchun kelgan chet mamlakatlar fuqarolari soni 6000 nafardan oshdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Tarixiy yodgorliklar va boshqa madaniy boyliklarni saqlash haqida qayg'urish O'zbekiston fuqarolarining burch va vazifasidir. O'n mingdan ortiq yodgorliklar davlat tomonidan muhofazaga olingan, davlat ularning ta'mirlanishiga va zarur holatda ushlab turilishiga katta mablag' sarflaydi "Davlat tomonidan muhofaza qilinadi". Bu mag'rur, mahobatli yozuv ko'p tarixiy binolarda ko'zga tashlanadi. O'z mohiyati bo'yicha-mag'rur, chunki tarix va me'morchilik yodgorliklari - bu, o'zbek xalqining g'ururi, shakli bo'yicha- mahobatli, chunki ko'pincha bunday yozuv o'z ko'rinishi bilanoq hurmat uyg'otuvchi marmar plitada bo'ladi. Ammo bu kabi taxtacha osib qo'yilgan yodgorlikning ko'rinishi hurmat uyg'otadimi? Deyarli ko'p tarixiy yodgorliklar bugungi kunda vayron bo'lyabti. Bu asosan, ikki qarama-qarshi sabab bo'yicha ro'y beryabti: egasizlikdan va yodgorlikda qanday bo'lsa, uning atrof hududida ham huddi shunday no'noq xo'jayinlik qilishadi! Norbo'tabek madrasasi oldi qismida yo'l o'tgan va kirish qismiga avtomobillar turishi uchun kichikroq avtomobillar turar joyi tashkil etilgan. Madrasaning orqa tomonida qabriston tashkil topgan. Muhofaza hududini tashkil qilishga keladigan bo'lsak, madrasaning 50 metr radiusida, unig mahobatini, ko'rkini buzadigan binolar mavjud emas. Madrasaning tashqi va ichki landshafti ishlab chiqilmagan. Oxirgi yillarda tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash va muhofaza qilish ishlariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning tarixiy shaharlarida ajoyib inshootlarni ta'mirlash sifatini keskin yaxshilashga qaratilgan bir qator muhim hukumat qarorlari qabul qilindi. Davlatimizning madaniy va tarixiy yodgorliklarga bo'lgan munosabati 2001 yil 30 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va qo'llash to'g'risida"gi qonuni bilan ham alohida tartibga solingan. Qonun qurilish manfaatlarida madaniy va arxitektura ob'ektlarini saqlash, yodgorliklarni muhofaza qilish va ta'mirlash bilan bir qatorda me'moriy yodgorliklardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish masalalarini qodlab chiqmoqda. Shuning uchun arxitektura yodgorliklarini saqlash ishini rivojlantirish muammosi bugungi kunning eng real va istiqbolli muammolaridan biri hisoblanadi.

XX asr boshlaridagi viloyatning arxiv ma'lumotlarida shaharda XVIII-XX asr oraliq'ida bunyod etilgan 50 dan oshiq madrasa, 250 dan ortiq masjid, ko'plab minoralar, xonaqolar va 20 dan ko'p me'moriy inshootlar bodganligi qayd qilingan. XIX asrda fotosuratlariga muhrlangan Ismoil Maxsum, Matkarimbek, Yor otaliq, Qozi kalon, Iskandar poshsha, Said Ahmad hoji, Shoh Mansur nomlari bilan atalgan obidalar ana shu tarixiy yodgorliklarning bir qismi hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, istiqbol yillarida yurtimizning boshqa shaharlarida bo'lgani kabi Marg'ilon ham tarixiy obidalarni, yodgorliklarni o'z asl holida, tarixiy ko'rinishiga monand tarzda qayta tiklashga kirishildi. Xoja parso, Hazrat bobo, Xoja Maoz, Ulug' mozor kabi masjidlar, ziyoratgohlar qaytadan qad rostladi.

Arxeologik topilmalar Marg'ilon o'rnida mil. boshlaridan aholi yashab kelayotganligini, X-asrda u katta qishloq bo'lganligini, XI-XII asrlarda esa shaharga aylanganligi tasdiqlamoqda. V. V. Bartold "Mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston" asarida Qoraxoniylar davrida ham Marg'ilon

viloyatning bosh shahri hisoblanganligini qayd etgan. "Boburnoma"da Marg'ilon Farg'onadagi 8 ta shahardan biri ekanligi, shaharning obodligi, shirin mevalari haqida so'z yuritilib, uning "donai kalon" deb ataluvchi anori va "subhoniyy" navli o'rigi maqtaladi. Shaharning qad. qismida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida Marg'ilonga bundan 2 ming yil avval asos solinganligi aniqlandi. Mahalliy ma'lumotlar bo'yicha shaharning 12 darvozasi bo'lgan. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Marg'ilon aholisi qadimdan atlas to'qish bilan shug'ullanib kelgan va shu tariqa uni jahonga mashhur qilgan.

Farg'ona vodiysining tarixi qadimiy Koson, Quva, Axsikent, Eylaton, Qayrog'och, Kuyiktepa, Dalvarzintepa, Qoradaryo shaharlari, Simtepa, Arktepa, Miqtiqo'rg'on kabi maskanlar xarobalari timsolida namoyon bo'ladi. Bugungi Marg'ilon bag'rida olis qadimiyat izlarini ko'rsatuvchi ko'xna obidalarni, arxitektura yodgorliklarini uchratish qiyin. Lekin arxeologlarning XX asrning oxirgi besh-olti yili ichida bu yerda olib borgan qazishma ishlari o'z samarasini berdi. Marg'ilon ostidan 20-25 gektarga teng qadimiy shahar va shahar hukmdorlarining qarorgohi, saroylari xarobalari izlari topildi. Shaharning yana bir qismidagi arxeologik qazishmalar natijasida zardushtiylarning ibodatxonasi va olov doimo yonib turgan olovxonalari, mehrob qoldiqlari o'rinlari aniqlandi. Bu yerdagi 30 dan oshiq arxeologik yodgorliklar tufayli hunarmandlar mahallasi o'rni belgilanib, ulardan topilgan tosh, bronza, mis va temirdan yasalgan buyumlar, sopol idishlar, qizil angob berib ishlangan xum va ko'zalar, har-xil haykalchalar o'rganib chiqildi. Natijada bularning hammasi eramizdan oldingi II va milodiy I asrlarga oidligi tasdiqlandi. Zero, 3-4 ming yillik qadimiyatga doir ikki boshli ilon aksi tushirilgan tosh tumor, saklarning bronzadan yasalgan 2,5 ming yillik tarixga ega qozoni, qadimiy lashkarlarning tasvirlari topilgan vodiy zaminidan Marg'ilon bilan bog'liq bu noyob osori-atiqalarning qazib olinishi tabiiy edi. Marg'ilon to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar X-asrga taalluqli. O'sha davrlarda shahar "Marg'inon" deb atalgan va keyinchalik har ikki nomi ham ishlatilib kelingan. Marg'ilon nomining kelib chiqishi haqida aniq bir ma'lumot yo'q. Ayrim toponimistlar "marg'" - "maysazor", "o'tzor"dan deb taxmin qiladilar. Marg'ilon "murg'" va "yunon" so'zlaridan degan mahalliy to'qima rivoyat ham bor. Ibratniig "Tarixi Farg'ona" qo'lyozma asarida yozilishicha, shaharga 883 yilda asos solingan - Marg'ilon shahrining 2000 yilligi munosabati bilan uning o'ndan ortiq joyida arxeologik qazish, ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, - deydi arxeolog Muhammadjon Isomiddinov. - Barcha nuqtalarida keksa tarix izlariga duch keldik.

Ayniqsa, shaharning g'arbiy qismida tarixiy inshootlar qoldiqlari ko'proq topildi. Bir joyda boshqa imoratlarga nisbatan yuksak platforma ustiga qurilgan uyning devorlari qoldiqlari saqlanib qolgan ekan. Uy nihoyatda katta bo'lgan. Uning atrofida noyob ashyolar, buyumlar namunalari sochilib yotardi. Uyning poydevor asosi ham boshqalariga nisbatan mustahkam edi. Shu sababli uni shartli ravishda hukmdorlar saroyi deb belgiladik. Hukmdorlar saroyining qurilish sanasi 20 asrdan kam emasdi. Ana shuning o'zi ham shahar yoshi haqida aniq ma'lumot berardi. Umuman, Marg'ilonda shahar bir joyda barpo etilgan. Natijada eski shahar ustida yangi shahar qad rostlab boravergan. Shuning uchun uning qadim tarixi zamonaviy shahar ostiga ko'milib ketgan. Marg'ilon so'zining kelib chiqishi haqida har-xil rivoyatlar, ma'lumotlar mavjud. U bitiklarda Marg'ilon, Marg'inon, Murg'inon shakllarida yoziladi. "Tarixi Farg'ona" va "Shayboniynoma" asarlari mualliflari Marg'ilon shahri nomi murg' va nondan olingan, ya'ni hukmdor huzuriga tovuq va non ko'tarib chiqqan odamlarning iltifotiga binoan Murg'inon atala boshlangan, degan afsonani keltiradilar. Etnograf olimlar Marg'inon so'zi marg'-maysazor, o'tloq, yaylov joy ma'nosini anglatadi, deb izohlaydilar. Muarrix Ibrat tarixiy asarida "Farg'ona vodiysi hududlarida 2000 yillar muqaddam mug'lar yashaganlar. Ular shaharlar barpo etganlar", deb yozadi. Agar shunday bo'lsa, Marg'inon Mug'inonning o'zgargan shakli emasmikan? So'z tarkibidagi "g'ino" boylik, mulkdorlik, "ino" esa ko'za, xum mazmunini anglatgan. Demak, bundan Marg'inon mug' xalqining boy hunarmandlari yashagan makon ma'nosini anglatadi, deyish mumkin. Xullas, shahar qanday nomlanmasin, nomi qanday mazmunni bildirmasin, bir narsa uning XX asrdan oshiq tarixga ega ekanligi aniq edi. Marg'ilon tarixda hunarmandlar shahri sifatida ham dong taratgan. Xitoyliklardan ipak yetishtirishni o'zlashtirish va uni dunyoga yoyish ham ana shu shahar tarixi bilan bog'liq. Shahar muzeyida saqlanib kelayotgan qorayib ketgan ipak mato parchalari ham, urchuqlar qoldiqlari

ham olis o'tmishdan guvohlik beradi. Bu yerda tayyorlangan ipak matolar dunyo bozorlarida nihoyatda e'zozlangan. Alloma Shamsiddin Tabriziy "Marg'ilonning bir ko'ylaklik shoyisi Isfaxonning bir yillik daromadiga teng" deb yozgan edi. Darvoqe, to'qimachilik va ipak to'qish sanoati - dastgohlar ham ilk bor shu shaharda paydo bodgan. Bu yerda hunaming biror turi yo'qki marg'ilonliklar shug'ullanishmagan bo'lsin. IX asrda Marg'ilonga kelgan Xitoy tarixchisi Chjan Xiu shaharda hunarmandchilikning 60 dan oshiq turi mavjudligi xususida ma'lumot beradi. Degrez, jibachi, baxmalbof, bujgun, zargar, tubriz, chakassoz, tikuvchi, chitgar, naychaso, kandakor, qulol... yana qancha hunarmandlik turlari bu yerlik aholining faoliyati asosiga aylangan. XV asrdan keyin shaharda hunarmandchilik yanada yuksalgan. Endilikda bu hunarlarning barchasi qaytadan tiklandi. Nafaqat tiklandi, balki hunarmandchilikning yangi turlari ham paydo bo'ldi. Bugun marg'ilonliklar orasida "chor hunar" degan atama mavjud. Buning ma'nosi shuki, shahardagi har bir hunarmand kamida to'rtta hunarni bilishi, egallashi zarur. Hunarmandning yetuklik darajasi bir jihatdan ana shu bilan ham o'lchanadi. Ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan noyob ashyolar yoki bugungi avlod yaratayotgan go'zal buyumlarga bir nazar tashlasangiz ular o'rtasidagi merosiy bog'liqlikni ko'rasiz. Bularning hammasida marg'ilonliklarning yuksak qadriyatlarini, hunarmandchilikka alohida ehtiromlari namoyon bo'ladi.

Marg'ilon shahri bilan bog'liq arab tilidagi ilk yozma ma'lumotlar IX-X asrlarda yashab o'tgan tarixchi olimlar Maqdisiy, Istaxriy asarlarida uchraydi. Maqdisiy "Ilmlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma" asarida Farg'onada X asrda 40 ta shahar va 70 dan oshiq qishloq bo'lganligini ko'rsatib o'tadi. U bu shaharlarni 3 toifaga - Miyonro'diy, Nesiya, Vag'zi turkumlariga ajratadi. Nesiya shaharlari orasida Qubo, Barang, O'sh, Marg'inon, Rishton, Bannat, Kent shaharlarini keltirib o'tadi. Istaxriy esa Marg'ilonni Movarounnahrning hunarmandchilik taraqqiy qilgan go'zal va katta shahri sifatida e'tirof etadi. XI-XII asrlarda Marg'ilon har jihatdan yuksalgan. Ayniqsa, Qoraxoniylar hukmronligi davrida shaharning o'z hukmdorlari paydo bo'lgan va ular mustaqil ravishda tangalar zarb qildirganlar. Shahar nihoyatda kengaygan. Uning atrofiga qurilgan ilk mudofaa devori o'rniga o'n ikkita darvozalik yangi mudofaa devori tiklangan. Shaharda ark, shahriston, uning atrofida rabodlar qad rostlagan. Marg'ilon tarixiy manbalarda savdo shahri sifatida ham tilga olinadi. Jumladan, Maqdisiy o'rta asrlarda Marg'ilonida 10 dan ortiq bozorlar va karvonsaroylar bo'lganligini keltirib o'tadi. Shahar vodiyning qoq markazida joylashgan. Qo'qondan Andijonga, Namangandan Qo'qonga, Shoshdan O'shga, Axsikentdan Quboga boradigan yo'llar ana shu shahar orqali o'tgan. Ayniqsa, bu yerda hunarmandchilikning rivoj topishi uni savdo shahriga aylantirgan. Mashhur yozuvchi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari qahramoni Otabekning savdo ishlari bilan aynan Marg'ilonga kelishi ham bejiz emas. Shaharning savdo yo'lida joylashishi uning madaniyati, san'ati, ilm-fani rivojlanishiga, vodiyning taraqqiyotga erishgan go'zal kentlaridan, qal'alaridan biriga aylanishiga xizmat qilgan. Amir Temur va temuriylar davrida Marg'ilon yanada kengayib, obod shaharga aylangan. Muarrixlar Sohibqiron Amir Temurning bu shaharda madrasa va masjidlar, mahobatli imoratlar qurdirgani, mudofaa devorlarini nihoyatda mustahkam qilib barpo ettirganligi haqida ma'lumot beradilar. Shu sababli Jamol Qarshiy "Mulhaqot as-suroh", Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarlarida "Marg'ilon - Farg'ona mulkidagi eng obod va go'zal shahar", deb ulug'laydilar. Shaharning kengayganligini uning bir necha darvozali, mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lganligi, Jome' masjidi, minoralari, katta bozori va o'nlab karvonsaroylari mavjudligi ham isbotlaydi. Qo'qon xonligi davrida Marg'ilon shahri bir necha bor vayron etilib, qaytadan obod qilindi. U Turkistonning markaziy shaharlaridan biri sifatida dong taratdi. Marg'ilon tarixiy obidalar, yodgorliklar, me'moriy inshootlarga boy shahar.

Farg'ona viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1938 yil 15- yanvarda tashkil etilgan. Respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Shimoldan Namangan, Andion viloyatlari, janub va sharqdan Qirg'iziston, g'arbdan Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh. Maydoni 6,8 ming km<sup>2</sup>. Tarkibida 15 tuman, 9 shahar (Beshariq, Marg'ilon, Rishton, Farg'ona, Yaypan, Quva, Quvasoy, Qo'qon, Hamza), 10 shaharcha, 164 qishloq fuqarolari yig'ini bor (2004). Markazi-Farg'ona shahri. Farg'ona viloyati O'zbekistonning qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri. Viloyat hududida topilgan tosh davri manzilgohlari va qoyatoshlariga solingan suratlar vodiya odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak beradi. Farg'ona viloyatining tosh davri yodgorliklarini 1954 yil A.P. Okladnikov rahbarligidagi arxeologiya otryadi o'rgangan. Vodiyning sharqiy qismidagi Qayroqqum, Xo'jag'or va Uchqo'rg'on makonlaridan muste davriga oid tosh qurollar topildi. Vodiyning g'arbiy qismidagi qadimgi tosh davri madaniyatiga oid manzilgohlar muste davridagi Qal'acha, Jarqo'ton va Qapchig'ay tosh qurollar ishlash ustaxonalari topilib o'rganildi. 1958 yil birinchi

marta Markaziy Fargʻonadan mezolit davriga oid mikrolit tosh qurollari topildi. Shuningdek, Markaziy Fargʻonadagi Uzunkoʻl va Tayloqkoʻl atroflaridan mezolit va neolit davrlariga oid 24 ta manzilgoh borligi aniqlandi (1965). Soʻx vohasidagi 28 gʻor va ungurlar (Selungur, Eshma, Obishir, Sur, Bel, Zim, Ovikambar, Bogʻishim va boshqalar) roʻyxatga olindi. Obishir gʻorlaridagi madaniy qatlam yaxshi saqlangan. Gʻorlarni qazish jarayonida mezolit davriga oid tosh qurollar, hayvon suyaklari topilgan. Bular oʻsha davr turmushini oʻrganish imkonini beradi. Fargʻona viloyatida asosiy hisoblangan Qoʻqon meʼmorligining shakllanishi XVIII-asrdan boshlanadi. Bu yerga dastlab Buxorodan bir guruh binokorlar taklif etildi, ular Madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, koʻprik va boshqa binolarni bunyod etdilar. Hozirgacha shaharda saqlangan meʼmoriy yodgorliklardan eng qadimgisi Madrasai Mir nomi bilan xalq orasida mashhur boʻlgan Norboʻtabiy madrasasidir (XVIII asr oxiri). Bu Madrasa Qoʻqon hukmdori Norboʻtabiy hukmronligi davriga oid. Undan tashqari, Daxmai shohon, Daxmai Modarixon meʼmoriy majmualari (XIX asrning 20-yillari), Miyon Hazrat (1860 yil), Kamol Qozi (1837 yil) madrasalari, Oʻrda (1871yil, Qoʻqon xoni Xudoyorxon tomonidan qurilgan), Jome masjidi (XIX asr oxiri-XX asr boshlari) kabi meʼmoriy yodgorliklar saqlangan.

XVIII asrning boshlarida Fargʻona vodiysida shakllangan yangi davlat- Qoʻqon xonligiga mahalliy aholi vakillari boʻlgan ming urugʻi asos soldi. Chunonchi, XVII asrning oxiri - XVIII asr boshlarida ashtarxoniylarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tushkunlik, Fargʻona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining oʻsishi hamda 1704 yilda Chodak xoʻjalarining isyon koʻtarib, Fargʻonaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Fargʻonaning shimoli va shimoli - gʻarbidagi Koson, Asht, Chodak hududlari xoʻjalar qoʻl ostida boʻlsa-da, ular mustaqil davlatga asos sola olmadilar. Maʼlumotlarga koʻra, ming urugʻining boshligʻi, taxminan 1669-1670 yillarda tugʻilgan Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1709-1721 yy.) Chodak xoʻjalari qoʻlida boʻlgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709-1710 yilda Fargʻona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi. Ammo, uning hokimiyati hali ashtarxoniyatlardan toʻla yoki batamom mustaqil emas edi. Chunki manbalarda Shohruhbiyning nomi ashtarxoniy Abulfayzxonidan soʻng tilga olinib, Shohruhbiyga Buxoro xoni tomonidan otaliq unvoni berilgani eslatiladi. Bu haqda tadqiqotchilarning ham fikrlari munozaralidir. Nima boʻlganda ham, Shohruhbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda (nisbatan boʻlsa ham) siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi yerlarni kengaytira boshladi. Shohruhbiy hukmronligi davrida Qoʻqon, Namangan, Margʻilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qoʻlida boʻlgan. Shohruhbiyning oʻgʻli va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733 yy.) taxtga oʻtirganidan soʻng minglar tasarrufidagi yerlar yana kengaya boshladi. Abdurahimbiy 1724 yilda Andijonni, 1725 yilda Xoʻjandni, 1726 yilda Oʻratepani bosib olib, xonlik hududlariga qoʻshib oldi. U qisqa muddat boʻlsa-da Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqoʻrgʻonni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qoʻqon (Xoʻqand) qishlogʻi oʻrni va atrofida yangi shaharga (dastlab Qalʼai Rahimbiy deb nomlangan, keyin esa Qoʻqon) asos soladi va bu shahar xonlikning poytaxtiga aylanadi. 1733-1750 yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn Shohruhbiy asosiy eʼtiborini mudofaa ishlariga qaratdi. U xonlikning poytaxti Qoʻqonda Isfara, Qatagʻon, Margʻilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan oʻratib oldi. Shu bilan birga u 1741-1745 yillardagi qalmoqlar (jungʻorlar) ning Fargʻonaga qilgan hujumlariga zarba berdi. Abdulkarimbiy qalmoqlarga qarshi kurashda qirgʻiz- qipchoqlar va Oʻratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamiga tayandi hamda xonlik mustaqilligini saqlab qoldi Abdulkarimbiy 1750 yilda vafot etganidan soʻng xonlik taxtiga uning oʻgʻli Abdurahmon oʻtirdi. Ammo, u taxtga toʻqqiz oy oʻtirib, soʻng Margʻilonga hokim etib joʻnatildi .

Abdurahimbiyning ikkinchi oʻgʻli Erdonabiy oʻtirdi. 1753 yilda qalmoqlarning tazyiqi va talabi bilan ularning qoʻlida garov sifatida oʻshalab turilgan Bobobek xonlik taxtiga koʻtarildi. Lekin, oradan bir yil ham oʻtmay Oʻratepa yurishi vaqtida Bobobek Beshariqda oʻldirildi hamda Erdonabiy (1755-1769 yy.) qayta Qoʻqon taxtini egalladi. Xitoylik geograflarning maʼlumotlariga koʻra, uning hukmronligi davrida, 1759-1760 yillarda Fargʻona toʻrtta mulk: Andijon, Namangan, Margʻilon va Qoʻqonga boʻlingan boʻlib, ular ichida Qoʻqon yetakchilik qilgan. Erdonabiydan soʻng taxtga Shohruhbiyning uchinchi oʻgʻli Shodibekning farzandi Sulaymonbek oʻtiradi. Uning taxtni egallashida urugʻ oqsoqollarining koʻmagi katta boʻlgan boʻlsada u atigi 6 oy hukmdorlik qildi. 1770 yilda Qoʻqon taxtiga Abdurahmonbiyning oʻgʻli Norboʻtabiy (1770- 1801 yy.) oʻtiradi. Norbutabiy Markaziy hikimiyatni mustahkamlashda, boʻysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda nisbatan muvaffaqiyat qozonadi. U Chust va Namangandagi gʻalayonlarni bostirganidan soʻng, bu shaharlarga oʻz odamlarini hokim etib tayinlaydi. Norbutabiy bir qancha urinishlardan soʻng Andijon, Oʻsh, Xoʻjand va yaqin

atrofdagi qo'shni hududlarni bosib oladi. U 1799 yilda Toshkentni ham bosib olishga harakat qildi, ammo, uning yuborgan qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Norbutabiydan so'ng uning o'g'li Olimxon (1801-1810 yy.) taxtga o'tirib, Qo'qon xonligining siyosiy qudratini mustahkamlash, mamlakat hududlarini kengaytirishga alohida e'tibor berdi. Natijada Qo'qon xonligining siyosiy mavqei oshib bordi. Olimxon davriga kelib Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruvi oldingi davlatlar boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Uning davrida Qo'qon davlati kuchayib borishi bilan davlatning siyosiy maqomi ham o'zgaradi. Agar Qo'qonning dastlabki hukmdorlari "biy" va "bek" unvoni bilan mamlakatni idora qilgan bo'lsalar, Olimxon davridan boshlab (1805 yil) hukmdorlar rasman "xon" deb yuritila boshlandi. O'z davrida Olimxon harbiy yurishlar qilib o'ziga yangi viloyatlarni, jumladan Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimgent, Turkistonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Qisqa muddat O'ratepani ham egalladi, Jizzax va Zominga yurishlar qildi. Harbiy islohatlar o'tkazib, markazlashgan va kuchli davlat tuzish uchun harakat qilayotgan Olimxonning siyosatidan norozi bo'lgan ayrim zodagonlar guruhi unga qarshi fitna tayyorlay boshladilar. Olimxon o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ukasi Rustambekni, bir nechta sarkardalarni, din peshvolarini o'ldirib yuboradi. Manbalarning ma'lumot berishicha, bu voqealardan so'ng kuchayib ketgan fitnachilarga Olimxonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan. Natijada, 1810 yilda Olimxon Toshkentdan Qo'qonga qaytayotganda, Oltiqush mavzesida o'g'li Shohruhbek bilan birga Qambar Mirza tomonidan otib o'ldiriladi. Manbalarga ko'ra, Umarxon (1810-1822 yy.) hukmdorligi davrida yirik yer egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqei yanada oshadi. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib, qonun - qoidalar o'rnatdi va diniy ishlarni tartibga soldi. Natijada, 1818 yilda Umarxon ruhoniylarning roziligi bilan "amir al-muslimin" unvonini olib ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega bo'ladi. Muhammad Hakimxon maTumotlariga ko'ra, Umarxon davrida Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlidan unvon va lavozimlar joriy etilib, ularga hokimiyatga yaqin shaxslar tayinlanadi. Shuningdek, Olimxon zulmidan qochib ketgan ayrim amaldorlar Umarxon xizmatiga qaytib kelib, lavozimlarni egallaydilar. Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Qo'qon xonligining O'rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o'zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O'z davrida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo'natilganligi ma'lum. N.Petrovskiy Umarxon hukmronligi davri haqida quyidagi madumotlarni beradi: "Umarning xonligi ham oldingi xonlarnikidek davom etdi, ya'ni, u o'z yerlarini kengaytirdi. Bu xon davrida Turkiston viloyati musulmonlarning Hazrat (Sulton al-orifin Ahmad Yassaviy davf etilgan Turkiston) shahri bilan birga zabt etildi. Umarxon halq sevib ardoqlagan xonlardan biri boddi. Qo'qonda ikki qator she'r tarqalgan bo'lib, unda Umarxon haqida juda iliq va yaxshi so'zlar aytilar edi"

1822 yilda Umarxon kasallanib vafot etganidan so'ng taxtga uning o'g'li Muhammadalixon (Madalixon) (1822-1842 yy.) o'tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo'qon xonligining hududi yanada kengayib, qirg'izlarning ba'zi tumanlari xonlikka qo'shib olinadi hamda Ko'lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschob kabi viloyatlar Muhammadalixon hukmronligini tan oladilar. Manbalarga ko'ra, Muhammadalixon hukmronligining dastlabki yillari yaxshi va odilona kechgan. U 1826-1831 yillar davomida Qashg'arga yurishlar qilib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qildi hamda 70 ming uyg'ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko'chirib keltirdi. Natijada din peshvorlari Muhammadalixoniga "G'oziy" ("din homiysi", "din yo'lida kurashuvchi") unvonini berdilar. 1840 yilda Muhammadalixonning bosh maslahatchisi, davlatni boshqaruv ishlarida katta tajribaga ega bo'lgan Haqquli mingboshining tuhmatga uchrab xon tomonidan qatl etilishi shusiz ham qaltis bo'lib turgan vaziyatni yanada keskinlashtirib yubordi. Undan tashqari xon davlat ishlariga loqayd bo'lib, asosiy vaqtini haramida o'tkaza boshladi. Lekin o'z kuchlari bilan fitnani amalga oshirishga ko'zi yetmagan bir guruh Qo'qon amaldorlari boshqa xon saylash maqsadida Buxoro amiri Nasrullo noma yozib, undan yordam so'rashdi. Qo'qon yurishi uchun bahona topolmay turgan Amir Nasrullo bu taklifni tezda qabul qilib, 1842 yil aprelda Qo'qonni bosib oldi. Qo'qondan oilasi bilan Namangan tomonga qochgan Muhammadalixon tutib keltirilib, oilasining bir qismi bilan qatl ettirildi. Amir Nasrullo Qo'qon xonligining Buxoroga qo'shib olinganligini e'lon qilib, Qo'qonda o'z noibi Ibrohim dodhoh Mang'itni qoldiradi. Ammo, Ibroxim dodhohning Qo'qon halqiga o'tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshib ketishi natijasida aholi qo'zg'olon ko'tarib, Buxoro hukmronligidan ozod qilish uchun qipchoqlarni yordamga taklif etadilar. Qipchoqlar Muhammadalixonning qarindoshi Sherali boshchiligida Qo'qonga kelib, buxoroliklarni tor-mor etdilar hamda Sheralixon (1842-1845 yy.) taxtni egalladi. Qipchoqlar esa shu vaqtdan boshlab uzoq vaqt xonlikda yetakchi mavqega ega bo'ldilar.

Qo'qonda bo'lgan voqealardan xabar topgan amir Nasrullo 1842 yilning kuzida yana Qo'qonga yurish qildi, ammo bu safar unga omad kulib boqmad. Muhammadaxon davrida yuzboshi bo'lgan Musulmonquli qipchoq Nasrulloning ishonchiga kirib Qo'qonga keladi va qo'qonliklarni taslim bo'lishga ko'ndirish o'rniga bir tan-bir jon bo'lib amir Nasrulloga qarshi kurashga chorlaydi. Uning maslahatiga ko'ra Qo'qonda himoya vositalari kuchaytirildi. Bir oydan ziyodroq Qo'qonni qamal qilgan amir Nasrullo o'ziga qarshi suiqasd uyushtirilayotligi hamda Xivaliklar chegaraga joylashgan Buxoro qishloqlariga hujum qilayotganligi haqidagi xabarni olib Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi. Buxoroliklarning ketishi bilan Qo'qon xonligida bir muddat tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Sheralixon keksa odam bo'lib oqko'ngil va muloyim inson edi. Uning davrida barcha davlat lavozimlarini qipchoqlar egallab, davlat boshqaruvini o'z qo'llariga oldilar. Ammo, 1845 yilda Buxoroda bo'lgan Olimxonning o'g'li Murodxon (Qo'qonda 11 kun xon bo'lgan) amir Nasrulloning yordami bilan Qo'qonga kelib Sheralixonni qatl etadi va taxtni egallaydi. Bu paytda Namanganda bo'lgan mingboshi Musulmonquli bu voqeadan xabardor bo'lgach Sheralixonning besh o'g'lidan biri Xudoyorxonni olib Qo'qonga keladi hamda uni xonlik taxtiga o'tqazadi (1845-1853, 1863, 1865-1875 yy.). 16 yoshga kirgan Xudoyorxonning yoshligidan foydalangan Musulmonquli mamlakatni deyarli o'zi boshqardi. Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida ikkita kuch - o'troq aholi va ko'chmanchi turkiy qabilalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash xonlikning asosiy muammosiga aylandi, .

Qo'qon xonligida Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Chimkent, Jizzax, O'sh, Xo'jand, O'ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi. XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal'a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo'ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham hizmat qilgan. Ushbu shahar va qal'alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo'lgan botirboshilar bo'lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Farg'ona viloyati shaharlarida mavjud tarixiy shaharlar, (Farg'ona, Marg'ilon, Rishton, Quva, Qo'qon va boshqa shaharlar) ularning markazida joylashgan tarixiy yodgorliklarning moddiy madaniy meros obyekti sifatida tarixiy va estetik qimmatini aniqlash hamda saqlab qolish va uning but saqlanishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlarini rivojlantirish, ushbu obyektlarning tarixiy-badiiy qimmatini va asralishini o'zgartirmasdan uning tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan unsurlarini ta'mirlash asosida undan hozirgi zamonda foydalanishga shart-sharoit yaratish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmuini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### Adabiyotlar

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. № PF-5611-son. 05.01.2019. O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. lex.uz. 2019, January 5. Retrieved June 13, 2022, from <https://lex.uz/docs/-4143188>.
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Prezident Farmoni. №PF-6165-son. 09.02.2021. O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. lex.uz. 2021, February 9. Retrieved June 13, 2022, from <https://lex.uz/docs/-5283956>.
- [3]. Yazdiy S. A. Zafarnoma //Tashkent: "Sharq. – 1997.
- [4]. Заиров Р. З., Аджитарова Г. А. Проблемы сохранения градостроительной среды при реконструкции исторических городов Узбекистана //Новые идеи нового века: материалы международной научной конференции ФАД ТОГУ. – Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования Тихоокеанский государственный университет, 2010. – Т. 1. – С. 63-65.
- [5]. Tojiboyeva D. Farg'ona viloyating muqaddas qadamjolari //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 970-974.
- [6]. Файзуллаева Н. Вопросы регенерации старгородской жилой среды в исторических городах Узбекистана //Архитектура. Строительство. Дизайн. – 2015. – №. 1. – С. 65-68.
- [7]. Nalivkin V. P. , Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva, Kazan, 1886; Akromov 3. M., Farg'ona vodiysi, T., 1957.

ФарПИ ИЛМИЙ-ТЕХНИКА ЖУРНАЛИ  
ТАХРИРИЯТИ:

Масъул муҳаррир  
Мусахҳиҳ  
Мусахҳиҳ  
Компьютерда саҳифаловчи

Н.Х. Юлдашев  
А.Ш. Нигматуллина  
Д.Х. Мамажонова  
С.Э. Йўлдашева

Таҳририят манзили:  
150107. Фарғона шаҳри, Фарғона кўчаси, 86 уй.  
Телефон: 241-13-54.  
Факс: 241-12-06.  
Бизнинг сайт: <http://www.ferpi.uz>  
E-mail: [jurnalferpi@mail.ru](mailto:jurnalferpi@mail.ru)

Ўзбекистон Республикаси Президенти администрацияси ҳузуридаги  
Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан  
Оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилиб,  
2020 йил 6 августда № 1081 рақамли гувоҳнома олинди.

Босишга рухсат этилди: 15.06.2022 й.  
Бичими: А4. Гарнитура Times New Roman.  
Босма табоғи: 15,25. Адади 100 нусха. Буюртма № 3.  
Баҳоси шартнома асосида.  
«Dadaхon Nur Print» МЧЖ босмаҳонасида чоп этилди.  
Фарғона шаҳар Б. Марғилоний кўчаси 62-уй.  
Лиц: №22-2891 21.11.2012 йил.